



KORXONALAR AYLANMA MABLAG‘LARINI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Sadinov Akmal Norbo‘taevich
Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola korxonalar aylanma mablag‘larini moliyalashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish asoslarini o‘rganadi. Aylanma mablag‘larni boshqarish tijorat korxonasi muvaffaqiyatining asosi, ushbu muammosi zamonaviy moliyaviy tahlil doirasida eng ko‘p muhokama qilinganyotgan masalalardan biri bo‘lib, "rentabellik-xavf" nisbati asosida tahlilga asoslangan. Maqolada tijorat korxonalarida "aylanma mablag‘lar" tushunchasi ko‘rib chiqiladi, iqtisodiy faoliyatda ularning aylanish jarayoni taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: Aylanma mablag‘lar, aktivlar, kreditorlik qarzlari, rentabellik, aylanma mablag‘larning tahlili, aylanma mablag‘larning nazorat qilish jarayonlari.

Kirish

Rivojlanib borib yotgan texnika asrida har bir tijorat korxonasi barqaror faoliyat va rivojlanishga intilmoqda. Shu bilan birga, yakuniy moliyaviy natijaning muhim qismini tashkil etuvchi aktivlarning mazmuni va tuzilishiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bunday holatda turli ko‘rsatkichlar va koeffitsientlardan foydalangan holda aylanma mablag‘larni boshqarishni takomillashtirish masalalarini o‘rganishning dolzarbligi oshadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Aylanma mablag‘larning mohiyatini aniqlash uchun ko‘plab olimlarning yondashuvlari mavjud bo‘lib, jumladan:

Lavrushin O.I., Lisitsian N.S., Bunich P.G., Perlamutrov V.P., Sokolovskiy L.X., Ostapenko V.V.- Aylanma mablag‘lar aylanma ishlab chiqarish fondlari va aylanma fondini shakllantirish uchun sarflanadigan xarajatdir, ya‘ni korxonalar resurslarining aylanish jarayoniga xizmat qiluvchi va faqat ishlab chiqarish funksiyasini bajaradigan kategoriya.

Parfanyak P.A., Radionova A.R., Rotshteyn L.A., Usatov I.A., Gruzinov V.P.- Aylanma mablag‘lar aylanma ishlab chiqarish fondlari va aylanma fondlarga yo‘naltirilgan pul mablag‘lari sifatida qaraladi.



Blank I.A., Yefimova O.V., Kovalev V.V., Raitskiy K.A., Stoyanova Ye.S., SHeremet A.D., Ionova A.F.V.- Aylanma mablag'lar har bir davrda korxonada tomonidan joriy operatsiyalarga investitsiya qilingan mablag'lardir.

Rayzberg B.A. Lozovskiy L.SH., Yefimova O.V.- Aylanma mablag'lar korxonada kapitalining harakatlanuvchi qismidir, bu asosiy kapitaldan farqli o'laroq, tezror va osonlik bilan naqd pulga aylanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy ishni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirishda olimlar va soha vakillari bilan suhbat, ularning yozma va og'zaki fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

Tahlil va natijalar

Yuqorida keltirilgan ta'riflarga nisbatan turli yondashuvlarni umumlashtirib, aylanma mablag'lar korxonada balansida va ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan mablag'larning bir qismi bo'lib, uning faoliyati davomida o'z qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulotlarga, bajarilgan ishlarga yoki taqdim etilgan xizmatga to'liq o'tkazadi. Bir tomondan, ular aktivlarning bir qismini ifodalaydi: logistika zaxiralari, tugallanmagan hisob-kitoblar, pul mablag'lari va moliyaviy investitsiyalar. Boshqa tomondan, bu ishlab chiqarish va savdo jarayonining uzluksizligini ta'minlaydigan kapitalning bir qismi (majburiyatlar)

Kredit siyosati -Bank boshtsaruv organlari tomonidan belgilangan bank biznes-rejasi, bankni rivojlantirish strategiyasi yo'nalishlari va yondashuvlaridan kelib chiqib, kreditlarni ularning qaytarilishi, foizlilik va muddatlilik sharti bilan o'z nomidan o'zining mablag'lari hamda jalb etilgan mablag'lar hisobidan berish tartibini belgilovchi, kredit ajratish va kredit tavakkalchiliklari hamda kredit portfelini samarali boshqarishga qaratilgan, kredit bozoridagi bank faoliyatining asosiy tamoyillarini belgilovchi va bankka kredit amaliyotlarini (mikroqarz, kredit, lizing, faktoring, akkreditiv, bank kafolati bilan bog'liq barcha amaliyotlar) tartibga soluvchi bankning asosiy ichki me'yoriy hujjati hisoblanadi.

Tijorat banklari tomonidan mijozlarga aylanma mablag'larni oshirishga qisqa muddatli kreditlar hisoblanib, 12 oygacha bo'lgan muddatda, hududiy bo'linmalar tomonidan qisqa muddatli kreditlar alohida kredit hisobvaraqa orqali kredit liniyasi ochgan holda yoki kredit liniyasi ochmagan holda ajratiladi:



Shuningdek, kichik tadbirkorlik subyektlariga aylanma mablag'larni to'ldirish uchun uzoq muddatga tuzilgan Bosh bitim doirasida qisqa muddatli kredit liniyasi orqali revolver kreditlar ajratiladi.

Kredit liniyasi uzluksiz ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo faoliyatida tovarlar, xom ashyo va materiallar olish orqali aylanma mablag'larni to'ldirish uchun yo'naltiriladi.

Kreditlash subyekti sifatida asosiy hisob raqami orqali muntazam pul oqimiga ega bo'lgan, tadbirkorlik faoliyati bilan kamida 3 (uch) oydan ortiq muddatda shug'ullanib kelayotgan va ijobiy kredit tarixiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari bo'lishi mumkin.

Bosh kelishuv doirasida va uning amal qilish muddati davomida har bir kredit liniyasi, ochilgan sanadan boshlab, 12 (o'n ikki) oydan oshmagan muddatga, asosiy qarz to'lovi bo'yicha 6 (olti) oygacha imtiyozli muddat bilan ochiladi. Bunda har bir kredit liniyasi alohida kredit liniyasi ochish bo'yicha tuzilgan kredit shartnomasi va qaytarish jadvaliga asosan taqdim etiladi.

Bosh kelishuv doirasida tuzilgan bitta kredit shartnomasi bo'yicha qarzdorlik to'liq qoplangandan so'ng navbatdagi kredit shartnomasi imzolanishi lozim. Shuningdek, avvalgi kredit shartnomalari bo'yicha muammoli qarzdorliklar yuzaga kelganda, bosh bitim doirasida navbatdagi kredit shartnomasi imzolanmasligi lozim.

Doimiy savdo tushumiga ega bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxs maqomiga ega tadbirkorlik subyektlariga "Mobile banking" ilovasi va "Internet banking" orqali 12 oy muddatgacha, har 3 oyda to'liq qaytarish sharti bilan onlayn skoring tahlili va oferta kredit shartnomasini tasdiqlangan holda aylanma mablag'larni to'ldirish uchun kredit mijozning asosiy hisobvarag'iga o'tkazib beriladi.

Qarz oluvchining asosiy hisobvarag'iga uzluksiz oxirgi 6 oy davomida 19903, 23508, 23510, 29804, 29824 hisobvaraqlar va 10101 (kassaga topshirilgan naqd pullar va tranzit hisobvaraqlar), 10111 (aylanma kassaga topshirilgan mablag'lar) hisobvaraqlari ("0100", "0200", "0400", "0701", "1101", "1102" simvollar bo'yicha) orqali kelib tushgan mablag'lar skoring qilinadi. Bunda qarz oluvchining o'rtacha bir oylik hisobvaraqa aylanmasining (mavjud kredit qarzdorliklarining bir oylik to'lovlari chegirib tashlanadi) 3 barobariga teng miqdorda, lekin 50 000 000 (ellik million) so'mdan oshmagan miqdorda onlayn va ta'minotsiz kredit ajratiladi.

Bunda quyidagi talablar amal qiladi:

- qarz oluvchi asosiy faoliyati bo'yicha oxirgi 6 oy davomida uzluksiz mablag' tushumiga ega bo'lishi;



- oxirgi 6 oydagi har oylik tushum miqdori o‘rtacha oylik tushumning 20% dan kam bo‘lmasligi;

- muddati o‘tgan kredit va “Kartoteka-2” qarzdorligi mavjud bo‘lmasligi.

Kredit mablag‘lari qarz oluvchining asosiy hisobvarag‘iga aylanma mablag‘larni oshirish maqsadida o‘tkazib beriladi.

Mijoz o‘z xohishiga ko‘ra muddatidan oldin kreditni qaytarganida qolgan davrga to‘g‘ri keladigan kredit limitidan foydalanishi mumkin.

Bank tomonidan mijozlarga berilgan to‘lov terminallarini kredit hisobiga rasmiylashtirish maqsadida onlayn kreditlar ajratilishi mumkin.

68. “Biznes onlayn-2” krediti qarz oluvchining asosiy hisobvarag‘iga uzluksiz oxirgi 6 oy davomida 19903, 23508, 23510, 29804, 29824 hisobvaraqlar va 10101 (kassaga topshirilgan naqd pullar va tranzit hisobvaraqlari), 10111 (aylanma kassaga topshirilgan mablag‘lar hisobvaraqlari (“0100”, “0200”, “0400”, “0701”, “1101”, “1102” simvollar bo‘yicha) orqali kelib tushgan mablag‘lar skoringi orqali, o‘rtacha bir oylik hisobvaraq aylanmasining (mavjud kredit qarzdorliklarining bir oylik to‘lovlari chegirib tashlanadi) 6 barobariga teng miqdorda, lekin 100 000 000 (bir yuz million) so‘mdan oshmagan miqdorda onlayn ajratiladi.

Kredit limiti 12 oyga revolver foydalanish sharti bilan shakllantirilishi lozim. Kredit grafigi asosiy qarz to‘loviga 1 oy imtiyozli muddat beriladi va qolgan to‘lovlar 11 oyga teng taqsimlanadi.

Mijoz o‘z xohishiga ko‘ra muddatidan oldin kreditni qaytarganida qolgan davrga to‘g‘ri keladigan kredit limiti foydalanishga taqdim qilinadi.

Kredit ta‘minoti sifatida barqaror moliyaviy holatga ega sug‘urta tashkilotining kredit qaytmaslik xatari bo‘yicha sug‘urta polisi onlayn qabul qilinadi.

Bunda sug‘urta shartnomasi shartlari Bosh kelishuv yoki ofertada belgilanishi lozim.

Kredit ajratilishidan oldin sug‘urta to‘lovlari bank tomonidan amalga oshiriladi va kredit mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

Kredit asosiy qarz yoki foiz to‘lovlari 3 marta yoki undan ortiq holatda 30 kundan ortiq muddatga kechiktirilganda, kredit to‘liq to‘langandan keyin ushbu kredit turidan 1 yil muddatgacha foydalanishi mumkin emas.

Mazkur kredit turi bo‘yicha qolgan barcha talablar “Biznes onlayn” kredit mahsuloti talablari bo‘yicha amalga oshiriladi.

69. “Ekspress biznes onlayn” kreditini ajratish.

Bankda hisobvaraqlariga xizmat ko‘rsatilayotgan yakka tartibdagi tadbirkor/yoki yuridik shaxs maqomiga ega tadbirkorlik subyektlariga “Mobile



banking” ilovasi va “Internet banking” orqali 12 oy muddatgacha onlayn skoring tahlili hamda oferta kredit shartnomasini tasdiqlangan holda aylanma mablag‘larni to‘ldirish uchun kredit mijozning asosiy hisobvarag‘iga o‘tkazib beriladi.

Qarz oluvchining asosiy hisobvarag‘iga so‘nggi 6 oy davomida kelib tushgan barcha mablag‘lar (ustav fondini shakllantirish va moliyaviy yordam bundan mustasno) asosida skoring amalga oshiriladi.

Bunda qarz oluvchining so‘nggi 6 oydagi hisobvarag‘i aylanmasidan eng kam aylanma amalga oshirilgan 3 oylik aylanmaning o‘rtacha miqdori aniqlanadi. Ushbu ko‘rsatkichning 6 barobariga teng miqdorda, lekin 100 000 000 (bir yuz million) so‘mdan oshmagan miqdorda, kredit qaytmaslik xatari bo‘yicha onlayn sug‘urta polisi ta‘minoti asosida kredit mablag‘lari ajratiladi (mavjud kredit qarzдорliklarining bir oylik eng yuqori to‘lovi chegirib tashlanadi).

Kreditlashda quyidagi talablar amal qiladi:

- qarz oluvchi asosiy faoliyati bo‘yicha oxirgi 6 oy davomida uzluksiz mablag‘ tushumiga ega bo‘lishi;

- muddati o‘tgan kredit va “Kartoteka-2” qarzдорligi mavjud bo‘lmasligi.

Kredit mablag‘lari qarz oluvchining asosiy hisobvarag‘iga aylanma mablag‘larni oshirish maqsadida o‘tkazib beriladi.

Kredit limiti 12 oyga revolver foydalanish sharti bilan shakllantirilishi lozim. Kredit grafigida asosiy qarz to‘loviga 1 oy imtiyozli muddat beriladi va qolgan to‘lovlar 11 oyga teng taqsimlanadi.

Mijoz o‘z xohishiga ko‘ra muddatidan oldin kreditni qaytarganida, qolgan davrga to‘g‘ri keladigan kredit limiti foydalanishga taqdim qilinadi.

Kredit ta‘minoti sifatida barqaror moliyaviy holatga ega sug‘urta tashkilotining kredit qaytmaslik xatari bo‘yicha sug‘urta polisi onlayn qabul qilinadi.

Bunda sug‘urta shartnomasi shartlari Bosh kelishuv yoki ofertada belgilanishi lozim.

Kredit ajratilishidan oldin sug‘urta to‘lovlari bank tomonidan amalga oshiriladi va kredit mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

Kredit asosiy qarz yoki foiz to‘lovlari 3 marta yoki undan ortiq holatda 30 kundan ortiq muddatga kechiktirilganda, kredit to‘liq to‘langandan keyin ushbu kredit turidan 1 yil muddatgacha foydalanishi mumkin emas.

3.6. Kontokorrent (biznes overdraft) kreditini ajratish tartibi

70. Kontokorrent krediti – bankning tadbirkorlik subyektlari bo‘lgan mijozlariga “Internet-banking” orqali hisobvarag‘idagi qoldiq mablag‘idan ortiq



miqdordagi mablag'ni ishlatish huquqini beruvchi ochiq kredit liniyasi orqali kreditlashning shakli hisoblanadi.

Bank tomonidan Kontokorrent krediti quyidagi talablarga javob beruvchi tadbirkorlik subyektlari bo'lgan mijozlarga ularning kredit hisobvarag'idan asosiy hisobvarag'iga pul o'tkazish yo'li bilan milliy valyutada amalga oshiriladi:

- bank tizimida asosiy hisobvarag'iga ega bo'lishi;
- doimiy pul oqimiga ega bo'lishi;
- muddati o'tgan kredit qarzdorliklari mavjud bo'lmashligi;
- "2-sonli kartoteka" bo'yicha qarzdorligi mavjud bo'lmashligi lozim.

Kontokorrent krediti yuridik shaxslarga Kontokorrent shartnomasi bo'yicha qaytarishlilik, to'lovlilik, muddatlilik va ta'minlanganlik shartlariga rioya qilingan holda ajratiladi.

Bank tomonidan Kontokorrent krediti qayta tiklanadigan (revolver) shaklda 12 oy foydalanish sharti asosida asosiy qarz to'lovi bo'yicha 3 oygacha imtiyozli muddat bilan ajratiladi. Bunda kredit qaytarish grafigi bo'yicha asosiy qarz to'lovlari so'nggi 9 oyga teng bo'linadi va mijoz grafik bo'yicha qoldiq summa limitida kreditdan revolver foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kontokorrent kreditining eng yuqori miqdori - qarz oluvchining faqat asosiy faoliyati bo'yicha oxirgi o'n ikki oy, undan kam muddat faoliyat yuritganda hisobvarag'i bankda ochgandan murojaat qilgan sanagacha o'rtacha oylik aylanmasining 6 baravarigacha miqdorida, lekin 2.0 mlrd. so'mdan oshmagan hajmda belgilanadi.

Ajratiladigan kredit miqdorini aniqlashda mavjud kredit qarzdorliklarining o'rtacha oylik to'lovlari chegirib tashlanadi.

Kontokorrent kreditini rasmiylashtirish uchun mijoz tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- kredit oluvchi va garovga qo'yuvchi (agar yuridik shaxs bo'lsa) tashkilot mulkdorlarining kredit ajratilishiga va garovga taqdim etishga roziligini tasdiqlovchi hujjatlar;
- faoliyatni amalga oshirish va ofis bino-inshootidan foydalanish huquqini beruvchi hujjatlari nusxasi;
- kredit ta'minoti hujjatlari.

Mazkur kredit turiga skoring tizimi qo'llanilmaydi va kredit ta'minoti mazkur reglament talablari asosida qabul qilinishi lozim.



Bank tizimida bir yuridik shaxsga bir vaqtda bittadan ortiq Kontokorrent krediti rasmiylashtirilishiga yo'l qo'yilmaydi. Mavjud Kontokorrent krediti to'liq so'ndirilganidan so'ng yangi Kontokorrent krediti rasmiylashtirilishi mumkin.

Qarz oluvchi tomonidan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Kontokorrent krediti summasining 125 foizidan kam bo'lmagan miqdorda ta'minot turlarini taqdim etadi.

Ko'pgina korxonalarining asosiy muammolaridan biri pul mablag'larining yetishmasligi bo'lib, qarzдорlikning tez o'sishi yoki tovar zaxiralarining asossiz o'sishi bilan bog'liq. Aylanma mablag'larning har bir elementining ishlash xususiyatlari uni rejalashtirish usuliga olib keladi; ikkinchisi, o'z navbatida, turli muddatlarda (uzoq muddatli, o'rta va qisqa muddatli) ishlab chiqarish muammolarini hal qilishni nazarda tutadi. Muayyan boshqaruv vositasi qanchalik to'g'ri tanlanganiga qarab, oxir-oqibat, kompaniyaning butun faoliyati samaradorligi bog'liqdir. Tahlil va nazoratning etarli bo'lmagan taqdirda, aylanma mablag'larning hajmi va tuzilishi bilan bog'liq xavflarning paydo bo'lishi mumkin:

- tovarlarning etishmasligi, qo'shimcha xarajatlar xavfi yoki hatto korxonaning faoliyatini to'xtatib turish bilan bog'liq;

- kelajakda likvidlikni yo'qotish bilan tahdid qiluvchi korxonaning kredit imkoniyatlarining etishmasligi;

- ishlab chiqarish jarayonining uzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan mablag'larning etishmasligi, majburiyatlarning bajarilishiga to'sqinlik qilish.

- aylanma mablag'larning ortiqcha miqdori moliyalashtirish xarajatlarini ko'paytirish va daromadni kamaytirish xavfiga olib keladi. Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini tahlil qilishning strukturaviy va mantiqiy ketma-ketligi quyidagicha keltirish mumkin:

Birinchi bosqich - vertikal tizimli tahlil, uning asosiy maqsadi shakllantirish va foydalanish yo'nalishlari bo'yicha hajmi, tarkibi va tuzilishini aniqlashga qaratilgan individual va jami ko'rsatkichlar nisbatlarini aniqlash va baholashdan iborat. Aylanma mablag'larning umumiy hajmini tahlil qilish, ularning tarkibi va tuzilishini tahlil qilish, harakat, shakllanish manbalari, ayrim turlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqich-gorizontal (trend) tahlil qilish-aylanma mablag'larning hajmi va tuzilishi dinamikasini o'rganish, vaqt o'zgarishining tendentsiyalarini aniqlash va miqdoriy baholash (mutlaq o'sish ko'rsatkichlarini aniqlash, o'rtacha o'sish, ularning tezligi). Shu bilan birga, tezkor boshqaruvni ta'minlash uchun o'rganilayotgan davr davomiyligi minimal bo'lishi mumkin - kun, hafta, oy, chorak.



Shu bilan birga, strategik boshqaruvni ta'minlash uchun ob'ektning dinamikasi bir, uch, besh va undan ko'p yillar davomida o'rganiladi.

Uchinchi bosqich-qiyosiy tahlil, shu kabi rejali, oldingi, me'yoriy yoki mos yozuvlar ko'rsatkichlari bilan o'rganilayotgan davr ko'rsatkichlarini taqqoslashdan iborat.

To'rtinchi bosqich-koeffitsientlar-oldindan asoslangan ko'rsatkichlar tizimida aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini baholashni nazarda tutadigan koeffitsient tahlil. Amalda, har bir korxonaga ko'rsatkichlar tizimining bir martalik hisob-kitobini emas, balki ushbu analog korxonalar yordamida tendentsiyalarni, miqyoslarni va ularning o'sish sur'atlarini tahlil qiladi.

Beshinchi bosqich-aylanma mablag'larni boshqarish samaradorligiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi muhitning asosiy omillarini aniqlashni o'z ichiga olgan omillarni tahlil qilish. Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligiga ta'sir qiluvchi tashqi omillar quyidagilardan iborat:

- umumiy makroiqtisodiy vaziyat (YalMning o'sish sur'ati, inflyatsiya darajasi, ishsizlik darajasi, siyosiy vaziyat, byudjet taqchilligi);

- kapital bozori (investitsiya bozorining rivojlanish tendentsiyalari, kredit resurslarining cheklanishi, to'lanmagan inqiroz, davlat pul-kredit siyosatining faolligi);

-bozor kon'yunkturasi(raqobat darajasi, jahon va ichki bozorning narx raqobati).

Oltinchi bosqich-ko'p bosqichli omil modelini qurish orqali amalga oshiriladi ajralmas tahlil, natijasida ta'siri tartibi asosida guruhlangan turli omillar ta'siri natijasida faoliyatining asosiy samarali ko'rsatkichlar biri shakllanishini tavsiflovchi.

Ettinchi bosqich -umumiy xulosalarni shakllantirish va aylanma mablag'larni boshqarish tizimini kompleks baholash bo'yicha tahliliy hisobot tayyorlash.

Mavjud mablag'lardan foydalanish samaradorligini nazorat qilishning zamonaviy vositasi juda keng va ularning ishlash ko'rsatkichlari tizimi orqali amalga oshiriladi, bu uchta asosiy guruhga qo'shilishi tavsiya etiladi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini uzluksiz nazorat qilishning asosiy jihatlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz:

-pul mablag'larini sarflashni nazorat qilish (ularning haqiqiy harakatini tahlil qilish, pul oqimi prognozini tuzish, ya'ni pul tushumlari va pensiya, pul mablag'larining optimal darajasini hisoblash);



- debitorlik darajasini nazorat qilish(oldingi davrda uning darajasini tahlil qilish, debitorlik qarzdorligiga investitsiya qilinadigan moliyaviy mablag‘larning mumkin miqdorini belgilash, kredit shartlari tizimlarini yaratish, ya’ni kredit davri, kredit miqdori, kredit qiymati;

-xaridorlarni baholash va kredit shartlarini farqlash; debitorlik inkassatsiya qilish operatsiyasi, debitorlik qarzining zamonaviy shakllarini joriy etish; qabul qiluvchilar bilan hisob-kitoblar holatini va debitorlik va kreditorlik nisbatlarini nazorat qilish va bir yoki bir nechta yirik xaridorlar tomonidan to‘lanmaslik xavfini kamaytirish uchun iste’molchilar doirasini kengaytirish. Qabul qilinadigan qarzlarning sezilarli darajada oshishi tashkilotning moliyaviy barqarorligiga tahdid soladi, chunki qo‘shimcha qimmatbaho moliyalashtirish manbalarini jalb qilish zarurligiga olib keladi);

- kreditorlik qarzlari darajasini nazorat qilish (debitorlik darajasini nazorat qilish kabi), inventarizatsiya darajasini nazorat qilish (oldingi davrda inventarizatsiya inventarizatsiyasini tahlil qilish, inventarizatsiyani shakllantirish maqsadlarini aniqlash(xom ashyo va materiallar zaxiralari, tayyor mahsulotlar); joriy zaxiralar guruhlarining hajmini optimallashtirish lozim

Shunday qilib, aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish joriy faoliyatning uzluksizligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, korxonaning barqaror va etarlicha to‘lov qobiliyatini ta’minlashda investitsiya qilingan kapitalga daromadni maksimal darajada oshirish imkonini beradi. Bu jarayon juda mashaqqatli, jiddiy yondashuvni talab qiladi; samarali faoliyat yuritish uchun korxonada malakali siyosatni olib borishi va korxonaning yanada rivojlanishini rejalasi yuqori darajada bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ismanov, I. N., & Xabijonov, S. K. U. (2019). Organizatsiya ucheta investitsiy v Kapitalnie vlojeniya. Vestnik nauki i obrazovaniya.
2. Kudbiev, D. K., & Tursunova, D. D. (2018). OSNOVNIIE PRINTSIPI BUXGALTERSKOGO UCHYO TA OSNOVNIIX SREDSTV. In Buxgalterskiy uchët: dostijeniya i nauchnie perspektivi XXI veka (pp. 87-93).
3. Muminova, E. A., Kunduzova, K. I., & Umaraliev, .Z. B. (2018). MODERNIZATSII EKONOMIKI I INNOVATSIONNOGO RAZVITIYA UZBEKISTANA. In NAUCHNO-TEKHNICHESKIY PROGRESS: SOTSIALNIE, TEKHNICHESKIE I OBSHCHESTVENNIE FAKTORI.
4. Tashpulatov, A. (2020). Modern forms of self-employment under conditions of recession. ISJ Theoretical & Applied Science.



5. Tolibjonovich, N. O. (2020). Global Economic Crises: The Global Economic Crisis In The Context Of The Coronavirus Pandemic And Its Elimination In Uzbekistan. *Solid State Technology*.
6. Ermatov, A. A. (2019). Vajnost audita v upravlenii riskom predpriyatiya v period perexoda k tsifrovoy ekonomike. *Problemi sovremennoy nauki i obrazovaniya*.
7. Toshmamatov, N. T., Temirkulov, A. A., & Xabijanov, S. K. (2019). 4.1. Osobennosti organizatsii vnutrennogo audita promishlennogo predpriyatiya na primere Respubliki Uzbekistan. *Audit i finansoviy analiz*.
8. Fozilov, X. R., & Fozilov, I. R. (2020). EKONOMIChESKIY ANALIZ I EGO ROL V UPRAVLENII PREDPRIYaTIEM. In *VOPROSI UPRAVLENIYa I EKONOMIKI: SOVREMENNOE SOSTOYaNIE AKTUALNIX PROBLEM*.
9. Kurbonalievna, I. G. (2021). The ways to improve the internal corporate governance mechanisms in joint-stock companies. *Asian Journal Of Multidimensional Research*.
10. Nurmatov, O. T. (2018). Voprosi sootvetstviya mejdunarodnim standartam natsionalnogo standarta buxgalterskogo uchyota Respubliki Uzbekistan. *Voprosi nauki i obrazovaniya*.
11. Kunduzova, K. I. (2020). The problems of accounting of liabilities in insurance organizations and its improvement. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*.
12. Shokiraliyevich, G. I. (2021). Role of information and communication technologies in accounting and digital economy. *SOUTH ASIAN JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT RESEARCH*.
13. Temirkulov, A. A. (2020). The correct acceptance of the investment decision is a factor of success of implementation of the process. *ISJ Theoretical & Applied Science*.
14. Shoev, D. A. (2019). Vajnie faktori povisheniya kachestva obrazovaniya. *Problemi sovremennoy nauki i obrazovaniya*.
15. Ismanov, I. N., & Moydinov, E. D. (2020). Concept of importance in audit planning and execution. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*.
16. Abdurazzakov, A., Fozilov, A. N., & Tashpulatov, A. (2021). NEKOTORIE VOPROSI OPTIMIZATsII RINKA TRUDA. *The Scientific Heritage*.
17. Atabaeva, Z. A. (2019). Organizatsiya ucheta investitsiy na Kapitalnie vlojeniya. *Problemi sovremennoy nauki i obrazovaniya*.
18. Yakubov, V. G. (2020). FINANSIROVANIE INVESTITsIONNIX PROGRAMM V MODERNIZATsII PROIZVODSTVA. In *MINTAQA IQTISODIYoTINI INVESTITsIYaLASHNING MOLIIYaVIY-HUQUQIY VA INNOVATsION JIHATLARI*.
19. Tohirovich, Q. N. (2021). International financial accounting standards in Uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*.